



TEMUR DAVLATI BOSHQARUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Ergashova Azizaxon Elmurod qizi
Guliston davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: O'zbek xalqining milliy davlatchilik tarixi ming yillar avval shakllangan. Tarixiy ildizlar bor joyda taraqqiyot bo'lishi haqidagi o'zgarmas qonuniyat mavjud. Shuning uchun ushbu qoidalar bugungi kunda o'zbek davlatchiligi misolida o'z ifodasini topmoqda. Shu jumladan, Amir Temurning davlat boshqaruvidagi tajribasi bugungi kun uchun va ayniqsa, mamlakatimizdagi davlat boshqaruv tizimida g'oyaviy dastur sifatida qabul qilingan. Bu Amir Temurning davlat boshqaruv uslublarini bugun kun davlatchiligida ham asosiy o'rin kasb etganligidan ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: Amir Temur, davlat boshqaruvi, vazirlik, "soxta xon", Buyuk Ipak yo'li, tavochi, devonbegi, Oliy sud raisi, O'zbekiston Respublikasi bosh muftiysi.

ЗНАЧЕНИЕ ПОЛИТИКИ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА СЕГОДНЯ

Аннотация: История национальной государственности узбекского народа сложилась тысячи лет назад. Существует непреложный закон: прогресс есть там, где есть исторические корни. Именно поэтому эти правила находят свое выражение сегодня на примере узбекской государственности. Среди них опыт Амира Темура в государственном управлении был принят как идеологическая программа на сегодняшний день и особенно в системе государственного управления нашей страны. Об этом свидетельствует тот факт, что методы государственного управления Амира Темура сегодня заняли центральное место в государственном управлении.

Ключевые слова: Амир Темура, государственное управление, министерство, «фальшивый хан», Великий Шелковый путь, тавочи, деванбеги, председатель Верховного суда, главный муфтий Республики Узбекистан

THE SIGNIFICANCE OF AMIR TEMUR' S PUPLIC ADMINISTRATION POLICY TODAY

Abstrakt: The history of national statehood of the Uzbek people was formed thousands of years ago. There is an immutable law that there is progress where there are historical roots. That is why these rules find their expression today in the example of Uzbek statehood. Among them, the experience of Amir Temur in public administration was accepted as an ideological program for today and especially in the public administration system of our country. This can be seen from the fact that Amir Temur's state management methods have taken a central place in statecraft today.

Key words: Amir Temur, public administration, ministry, "fake hon", The great silk road, tavochi, devonbegi, Chairman of the Supreme Court, Grand Mufti of the Republic of Uzbekistan.



KIRISH

O'zbek xalqi mustaqillikka erishishi bilan milliy o'zlikni anglashga katta imkoniyatlar yaratildi. Milliy davlatchiligimizning tiklangan bugungi kunda barcha sohalar qatorida ajdodlarimizdan qolgan siyosiy merosimizni chuqur va xolisona tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir. Zero, o'zbek xalqining milliy davlatchilik tarixi ming yillar avval shakllangan. Tarixning ildizlar bor joyda taraqqiyot bo'lishi haqidagi o'zgarmas qonuniyatlari mavjud. Bu qoidalar bugungi kunda o'zbek davlatchiligi misolida o'z ifodasini topmoqda. Hozirda xalqimizning siyosiy merosini qayta tiklash va uni sayqallashtirgan, modernizatsiyalashtirgan holda davom ettirish davr ehtiyojiga aylandi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Ingliz olimasi Xilda Xukxem Amir Temur o'z yurtida davlatchilik va madaniy an'analarning davomchisi bo'lganligini, uning davrida mamlakatdan X-XI asrlarda tabobat, matematika, astronomiya, geografiya, falsafa, tarix, arab va fors tillari, adabiyot bo'yicha benazir asarlar yaratgan buyuk allomalar yetishib chiqqanligi, mazkur allomalarning yirik asarlari bir necha yuz yillar davomida Yevropadagi uyg'onish davrida katta ta'sir ko'rsatib unga poydevor bo'lib xizmat qilganligini e'tirof etadi. Umuman olganda, Amir Temur davlati o'zbek davlatchiligi tarixining eng rivojlangan bosqichidir.

"Amir Temur turli yo'llar bilan o'z hokimiyatining qudrati, ilohiyligini ommaga yetakzishga intilgan va xalq orasida o'zini shunga munosib tutgan. Tarixga nazar solsak, ularning ham haybatli ko'rinishga intilganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, Misr fir'avnlari o'zlarini xudo darajasiga ko'tarib, nargi dunyoda rohat-farog'atda yashashlari uchun osmono'par ehromlar qurdirganlar. Qadimgi Xitoyda ham hukmdor, Omon xudosining o'g'li deb tushunilib ilohiylashtirilgan. Davlat rahbari haqidagi bunday tushunchalar ko'plab mamlakatlar tarixiga xosdir. Sohibqironning davlat rahbari haybati haqidagi fikriga ko'ra, agar osiy bo'lib yursa va o'zini haybatli tutolmasa, amaldorlar va xalq undan cho'chimasligi mumkin. Ma'lumki, Sohibqiron xalqni qo'rqqinch va umid orasida saqlaganligini ko'p bora ta'kidlagan. Uningcha, fuqarolar, avvalo, davlatning kuchini va davlat rahbarining bemisl qudratini sezishi, amaldagi qonunlarni buzishdan saqlanishi, sodir etilgan jinoyatga jazo muqarrarligini, jamiyat oldidagi burchini anglashi kerak" – deb yozadi Shohista O'ljayeva o'zining "Amir Temur davlat boshqaruvi" asarida.

"XIII asrning 20-yillarida Markaziy Osiyoga mo'g'ul hukmdorlari egalik qila boshlashlari oqibatida Abu Nasr Forobiy, Muso Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy kabilar zakovati bilan tiklangan ilm-fan va madaniyatimiz qoyalari nurashga yuz tutdi, hukmron mafkura hisoblangan islom dini ham o'z maqomidan anchagina mahrum bo'ldi. Chunki Movarounnahrni o'z ulusi o'laroq tasarrufiga olgan Chig'atoyxon islom dinining ashaddiy dushmani edi.

Muhokama. Yov asoratida qolgan Movarounnahr xalqi, ozodlik kurashiga shaylanar ekan, ko'ksida asrab-avaylab kelgan istiqloq g'oyasini qudratli kuch va harakatga aylantiradigan ma'naviy asosni axtardi. Turonliklarning erkka bo'lgan intilish va irodasini tarbiyalagan er, avvalo, mashhur ajdodlar vatanparvarligi, so'ngra dini islom va shu yurtda dunyoga kelgan to'rt buyuk tariqat bo'ldi. Mo'g'ullar bosqini arafasida shakllanish bosqichida bo'lgan Futuvvat (javonmardlik, jo'mardlik), Yassaviya, Xojagon (keyinroq



Naqshbandiya) va Kubraviya tariqatlari namoyandalari ta'sirida xalq e'tiqodini poklab, ma'nan o'zidan tuban turuvchi dushman ustidan ruhiy g'alabaga erishishdir. Temurning ijtimoiy-siyosiy tamoyillari tizimini yanada batafsilroq bayon qilsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

1. Amir Temur iqtisodiyotni har qanday saltanat poydevori, deb tushungan. "Davlatu saltanat - deb ta'kidlaydi, Temur o'zining "Tuzuklari"da, - uch narsa bilan - mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir". Bu bilan Temur davlatning yashashi va ijtimoiy rivoji uchun, avvalo, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi.

2. Amir Temurning qarashlariga ko'ra, har bir mamlakat, turli xil iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, barcha mintaqalar "xususida to'la ma'lumotlarga ega bo'lishi va ularning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olishi" lozim.

3. Amir Temur asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer egaligiga katta e'tibor qildi va har bir viloyatni idora qilishda davlat, vaqf, xususiy er egaligi tartiblarini saqlab qoldi va bunga er maydonining miqdori, egalik huquqini davlat manfaatini ko'zda tutib, o'zgartirishga harakat qildi.

4. Temur mehnatning yaratuvchanlik faoliyatini nazarda tutib, uni ijtimoiy qadriyat, deb tushundi.

5. Amir Temur iqtisodiy tamoyillari tizimida moliya masalalariga katta e'tibor bergan. Chunki moliya Temur nazarida davlatning iqtisodiy tayanchi hisoblangan.

Temurning siyosiy-huquqiy qarashlari uning axloqiy qarashlari bilan asoslanadi va diniy axloq ustiga quriladi. Shuning uchun ham Temur nazarida har qanday siyosatning muvaffaqiyati podshohning o'z fuqarolariga bo'lgan rahmdilligi, saxovatida-dir. Qur'onda "Taxlaku bi-axloq Alloh" deyilganidek, - deb yozadi Temur, - agar podshoh, biror gunohkorning gunohini kechirsa, bu bilan fuqarosiga rahm qilgan bo'ladi. Mening barcha ishlarimda ana shunday podshohlar menga ibrat bo'ldi". 2. Temur o'z siyosatida ham adolat, haqqoniylik, odillikka tayanib ish tutdi. Chunki o'z siyosatida haq yo'lini tanlagan. Temur bundan boshqa siyosat yuritishi mumkin emas edi. U nimaiki qilsa, shariat doirasida, musulmon fiqhi qoidalariga tayanib, umuman Islom qudrati bilan ish tutdi. Bu esa Temurning o'z piri Abu Bakr Toyibodiyning «rosti-rasti» ya'ni, «haqgo'y bo'lsang, najot topasan» hikmatini, Ibn Arabshohning yozishicha, Temur o'z tamg'asiga muhr sifatida o'rnashtirgan edi. Shunday qilib, Temur ham adolat haqidagi o'z qarashlarini diniy tamoyillar asosida bayon qildi. Bizgacha saqlanib qolgan yilnomalar va tarixiy manbalarda Temurning dinga munosabati o'zining yaqqol ifodasini topgan. Jumladan, islom diniga munosabat tamoyilini ishlab chiqqanligi butun temuriylar uchun dastur vazifasini o'tadi. Chunki Temur islom diniga davlatni idora qiladigan siyosiy tamoyili yo'qligi uchun emas, balki uning xalqqa eng yaqin va ma'qul bo'lganligi hamda uning insonparvar xususiyati uchun to'la tayangan.

Temurning siyosiy tamoyili markazida inson turadi. Temur o'z davrida saltanat manfaatini xalq manfaatiga bo'ysundira olgan davlat rahbari edi. Temur siyosiy qarashlari tizimining yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u har bir siyosiy masalani hal etishdan oldin shu sohaning bilimdon odamlari, olimlari bilan maslahatlashib, so'ngra qaror qilar edi. Uning olimlar bilan qiladigan maslahatlari turli shakl va darajada bo'lardi. Shuni ham aytib



o'tish kerakki, XIV-XV asr mutafakkirlari o'z ijodlari va g'oyaviy karashlarida adolatli va ma'rifatparvar shohning eng oliy sifati qilib, birlari adolatni ko'rsatsalar, boshqalari aqlni, uchinchi toifadagilar esa - axloqiy sifatlarni ko'rsatganlar. Shunisi qiziqarliki, agar ular o'zlarining «Ideal davlat» nomli g'oyaviy xayolotini nazariy jihatdan ta'riflagan bo'lsalar, XIV asrga kelib, Amir Temur uni amalda qo'llay oldi va o'zida buxislat va xususiyatlarni mujassamlashtirgan adolatli hukumdor sifatida maydonga chiqdi. O'z saltanati siyosatini tasavvuf asosiga qurgan Temur adolat bayrog'ini baland ko'tarib, xalqni quruq qonun-qoidaga emas, balki insoniy tartib-intizomga bo'ysunishga chaqirgan. Chunki Temur insoniy tartib-intizomga ilohiy tus berib, uni muqaddas deb biladi va shuning uchun ham yomonlikni maqsad qilgan kishilarni jilovlovchi va yaxshilik yo'lida jafo chekuvchilarni quvvatlovchi har qanday podsho va hokimga bo'ysunish kerak, deb hisoblaydi. Amir Temur jahonning katta qismini fath etdi, umrining oxirigacha kamtarona amirlik darajasi bilan qanoatlandi. «Tuzuklar»dan ko'p misollar keltirish mumkin: Ularning nazdida dunyo boyligi emas, inson qadri ustun turgan. Shuning bilan birga, Temur tasavvufning Yassaviya tariqatiga ixlosi baland bo'lganligi haqida ham dalillar bor. Buning sababi bir tomondan «... Yassaviya ta'limoti o'zining mustahkam intizomi, pok islomiy-mazhabiy, irfoniy-tasavvufiy g'oyalari bilan Turkiston xalqlarini mo'g'ullar zulmi va istibdodiga qarshi jipslashtirib tarbiyalab borgan»ligida bo'lsa, ikkinchi tomondan, Amir Temur Ko'ragon, Xo'ja Ahmad Yassaviyning (1166-1167 yilda vafot etgan) avliyolik martabasidan ma'naviy, ruhiy oziq, kuch olib kelganligidadir.

Shuni aytish lozimki, ba'zi olimlar haqli ravishda, Buyuk Temur saltanati - imperiyasining boshqarish qonun qoidalari Naqshbandiy tariqati g'oyalari bilan asoslangan, deb hisoblaydilar. Temur tuzuklarining vujudga kelishi, kuchli mafkuraviy nazariya hamda boy amaliy tajribalar mahsuli sifatida maydonga kelganligi ko'rsatib o'tiladi. «Ana shu tarzda Naqshbandiya tariqati g'oyalari Amir Temur davrida Movarounnahrda va saltanatning boshqa hududlarida kuchli ijtimoiy mafkuraga aylandi», - deb yozadi faylasuf N. G'oyibov. Saltanatda barcha sohalarda tub burulishlar, yuksalishlar kuzatilgan. Taraqqiyot uchun xizmat qilgan Amir Temur faoliyati bilan bog'liq tarixiy qadriyatlar allaqachon umuminsoniy qadriyatlar darajasiga yetib ulgurgan. Amir Temurning qudratli davlatni barpo etgani va shu bilan birga, bu davlatda bardavom tinchlikni, adolatni saqlab ish yuritgani hammamiz uchun ulkan saboqdir. Ayniqsa, o'z mamlakatida siyosiy, ijtimoiy, boshqaruv sohasi bo'yicha alohida tadbirlarni amalga oshiradi. «Davlat boshqaruv tuzimida o'ziga xos bo'lgan yangicha usullarni yo'lga qo'yadi. G'arb va Sharqni bog'lovchi ko'prik hisoblangan O'rta Osiyo yerosti va yerusti boyluklariga kon, tabiati mo'tadilligi bilan barcha fotihlarning nazari tushadigan, Buyuk ipak yo'lining yirik tarmog'i o'tgan, geosiyosiy muhim hudud edi. Shuningdek, XIII -XIV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari bir yarim asrlik mo'g'ul zulmi va adolatsizliklardan ezilgan, tarqoqlik kuchaygan, iqtisodiy qiyinchiliklar avjida edi. Amir Temur ana shunday murakkab davrda markazlashgan davlat tuzish vazifasini uddaladi.» [1]

Amir Temurning davlatining Markaziy ijro ma'muriyati bosh vazir - devonbegi boshliq yetti vazirlikdan iborat arkoni davlat - bugungi kunda ushbu vakolatni Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshirilmoqda.



1- Vazirlik –mamlakat va rasmiy ishlar bo'yicha faoliyat ishi olib borgan. Bu vazirlik viloyat va tumanlar tomonidan to'lanadigan hosil, soliqlar, o'lponlar va ularning taqsimoti, kirim-chiqimlar hamda obodonchilik ishlari bilan shug'ullangan.

2- Vazirlik-vaziri sipoh, ya'ni harbiy ishlar bo'yicha bo'lib, askarlarning maoshi hamda oziq-ovqat va qurollari ta'minoti bilan shug'ullangan.

3- Vazrlik-tijorat vazirligi bo'lib, savdogarlarning mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlar, egasiz qolgan mol-mulklarni tasarruf etish, meros va merosxo'rlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etgan.

4- Vazirlik-saltanat ishlarini yurutuvchi vazir, ya'ni moliya vaziri bo'lib, davlat xazinasidan sarf etiladigan xarajatlar, umuman saltanat kirim-chiqimlarini boshqargan. Mazkur to'rt vazirlikdan tashqari, chegara viloyatlari va tobe mamlakatlar ishlarini nazorat qilib turish uchun yana maxsus uchta vazirlik ta'sis etilgan edi. Bu uch vazir mazkur viloyatlardan davlat xazinasiga kelib tushadigan daromatlarini nazorat qilish va ular bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy masalalar bilan shug'lullangan.

Demak, Amir Temur davrida boshqaruv ikki idora: dargoh va devonlarga (vazirliklarga) bo'lingan. Dargoh – eng oliy davlat idorasi. Uning boshlig'i ham tabiiy ravishda davlatning oliy hukmdori. Amir Temur davlat tepasiga kelgandan so'ng chingiziylardan bo'lmish Suyurg'atmishni xon, ya'ni oliy hukmdor deb e'lon qilgani ma'lum. Shu bilan birga Suyurg'atmish "soxta xon" maqomida bo'lib, amaldagi hokimiyat Sohibqiron ixtiyorida bo'lganini ham bilamiz.

Amir Temur cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib, o'zi lozim topgan paytda davlat mansabdorlari tomonidan qabul qilingan qarorlarni o'zgartirishi va yangi qarorlar qabul qilishi mumkin bo'lgan. Saroydagi devon mansablarga ishonchli vakillarini tayinlagan. Ular saltanatdagi voqea-hodisalarni, xalqning turmush tarzini, ularning arz-dodini Amir Temurga yetkazib turgan. Jumladan, hukumat devonlari boshlig'i Devonbegi bo'lib, ba'zan Sohibi devon – vaziri a'zam deb atalgan. Xo'ja Ma'sud Simnoniy Amir Temurning eng ishonchli sohibi devonlaridan biri bo'lib, unga katta vakolatlar berilgan. Markaziy hokimiyatning eng muhim mansabdorlaridan biri vazirlar hisoblangan. Ba'zan ular Devoni adl, devoni kuzzot deb atalgan. Amir Temur saltanatida yettida vazir faoliyat ko'rsatgan. Ular devonbegiga bo'ysungan. Podshoh va davlat xazinasiga xazinador (xazin) javobgar bo'lib, ularning ishlari qattiq tekshirilgan. Markaziy hokimiyatda muhrdor lavozimi katta ahamiyatga ega bo'lib, davlat hujjatlariga muhr qo'yish ishiga mas'ul hisoblanib, hukmdorning eng yaqin kishisi bo'lgan.Podshoh huzuriga arz-dod bilan keluvchilar, shuningdek, el-yurtning umumiy ahvoli, elatlarda oliy hukmdorning farmon va vakolatlariga ega bo'lgan oliy mansabdor arzbegi deb atalgan. Uning zimmasiga mamlakatda bo'layotgan voqea-hodisalarni haqqoniy yetkazish mas'uliyati yuklangan. Shig'ovullar turli davlatlardan boshqa davlatga ketayotgan elchilarning tashkiliy masalasi bilan shug'ullangan. Oliy mansablardan biri tavochi (adyutant)lar qurultoyga davlatning turli o'lkalaridan shahzoda va boshqa mahalliy boshliqlarni, yurishlar oldidan lashkar to'plash, janglar vaqtida vafot etgan harbiylarning hisobotini olish ishlari bilan mashg'ul bo'lishgan. Shuningdek lashkar sharoitini yaxshilash, amirlarga kerakli vazifalarni yuklashi ularning tartib raqamlarini belgilash ishlariga ham mas'ul hisoblangan.



Bulardan tashqari, akademik Bo'rivoy Ahmedov davlatda adliya vazirligi, davlat nazoratchisi vazirligi kabi vazirliklar faoliyat yuritganligini ta'kidlagan. Amir Temur davlat ishlarini yuritishda to'rt jihatga doim amal qilgan. Bular: kengash, mashvaratu maslahat, qat'iy qaror, ehtiyotkorlik. Amir Temur vazirlarini tanlash ishiga g'oyat jiddiy qarar va ularni to'rtta sifatga ega bo'lishlariga ahamiyat berar edi. Bular:

aql-farosatlik, toza nasllik, sipohu rayiyat ahvollaridan xabardorlik, sabr chidamlilik va tinchliksevarlik.

Amir Temurning boshqaruvi bugungi kun uchun shak-shubhasiz ahamiyatlidir. Buni uning boshqaruv uslublarini bugun kun boshqaruvida ham asosiy o'rin kasb etganligidan bilib olishimiz mumkin. Amir Temurning tadbirlarini qo'llash davlatchiligimiz rivojini yanada jadallashtiradi.

Natijalar. Xususan, bugungi kundagi O'zbekiston Respublikasining bosh vazirining vazifalari Amir Temur saroyida devonbegi tomonidan idora qilingandir. Amir Temur huzurida tavochi vazifasidagi shaxs bugungi kunda harbiy qism boshlig'i bo'lib, uning vazifalarini bajaradi. Davlatning boshqaruvini bugungi kunda mamlakatimizda prezident idora qilsa, o'sha paytda esa amir boshqargan. Prezident hozirda o'sha davrdagi harbiy qism qo'mondonining vazifalarini ham bajaradi. Prezident huzuridagi xalq qabulxonasi Amir Temur saroyida dodxoh lavozimidagi shaxs bajargan. Amir Temur saroyidagi shig'ovullarning vazifasini bugungi kunda mamlakatimizda bosh vazir amalga oshiradi. Amir Temur saroyidagi shayxulislom lavozimi bugungi shunda O'zbekiston Respublikasi bosh muftiysining lavozimiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvini, Amir Temur davri davlat boshqaruvining yangicha talqini deyish mumkindir. Amir Temur saroyida mavjud bo'lgan deyarli barcha mansablar bugungi kunda ham davlatimiz boshqaruvida mavjudligi buning yaqqol dalilidir. Respublikamiz shu yo'l bilan Amir Temur davridagi boshqaruvdanda kuchliroq boshqaruvga ega bo'lishi va yanada kuchliroq rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Mamlakatimiz Prezidentiga Amir Temurning boshqaruvdagi o'gitlari va ko'rsatmalari davlatimizni boshqarish uchun yanada ko'proq kuch va e'tibor bag'ishlamoqda. Qolaversa, davlatimiz boshqaruvida ulug' bobomizning tadbirlarini joriy qilish yoshlarimizning ongida vatanparvarlik tuyg'usini yanada oshiradi va vataniga sidqu dildan xizmat qilishga, uni ko'z qorachig'iday asrashga, uning kelajagi farovon ekanligiga ishonchini yuksaltiradi.

Xulosa. Amir Temur milliy g'urur, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar bilan qurollangan buyuk davlat arbobi edi. Mojar olimi Xerman Vamberi ta'kidlanganidek, O'rta Osiyada asl turkiy davri Amir Temurdan boshlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarjonovich M. A. Migratsiya jarayonining tahlili va muammoli jihatlarini //iqro. №1. – Toshkent. – C. 628-631.
2. Akbarjonovich M. A. An analytical approach to the elimination of corruption //filnland international scientific journal of education, social science & humanities. –



Toshkent. №. 4. – C. 2045-2047.

3. Odilqoriyev H., Azizov N., Madirimov X. Davlat va huquq tarixi. Darslik.
– Toshkent. 2012.
4. Temur tuzuklari. G'ofur g'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi.
– Toshkent. 1991.
5. O'ljayeva Sh. Amir Temur davlat boshqaruvi. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
6. – B. 248.